

ASRLARGA TENG QADR: SHERABOD TUZKONING O'TMISHI VA BUGUNI

*Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti
Pedagogika va ijtimoiy-gumanitar fanlar
Fanlar fakulteti tarix ta'lim yo'nalishi
3 bosqich 223-gurux talabasi
Toshto'xtayeva Fotima Muzaffar qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida joylashgan noyob tabiiy boylik — Tuzkon (Xo'jaikon) konining tarixi, shakllanish jarayonlari va bugungi kundagi iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada konning shifobaxsh xususiyatlari, xususan, speleoterapiya (tuz g'ori orqali davolash) imkoniyatlari hamda mahalliy aholining turmush tarzida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, hududning eksport salohiyati va tabiiy zahiralarning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Sherobod, Tuzkon, Xo'jaikon, Surxondaryo, osh tuzi, speleoterapiya, tuz g'ori, mineral resurslar, eksport, shifobaxsh tuz, O'zbekiston geologiyasi.

Surxondaryo deyilganda ko'z oldimizga haybatli Boysun tog'lari-yu, Sangardak sharsharasi keladi. Ammo Sherobod tumanining bag'ridagi bir mo'jiza borki, u nafaqat vo'ha, balki butun mintaqa uchun hayotiy ahamiyatga ega. Bu – mashhur Sherobod Tuzkoni (Xo'jaikon). Bu maskan shunchaki sho'r tuproqli yer emas, balki tabiatning million yillar davomida pishitgan "oq xazinasi"dir.

Xo'jaikon Tuzkoni geologlarning tahliliga ko'ra, bu yerda tuz qatlamlarining shakllanishi bundan 150-200 million yil oldingi yura davriga borib taqaladi. Bir paytlar bu yerda ulkan okean bo'lgani va vaqt o'tishi bilan suv chekinib, quyosh taftida quyuqlashgan tuz qatlamlari yer ostida qolib ketgani haqiqatdir.

Tarixiy manbalarda esa Tuzkonning nomi Buyuk Ipak yo'li bilan bog'lanadi. Sherobod orqali o'tgan karvonlar bu yerda to'xtab, tuyalariga tuz ortishgan. Mahalliy aholi orasida yurgan gaplarga ko'ra, qadimda bu tuzni "tog' tuzi" deb atashgan va u o'sha paytlarda ham o'zining tozaligi bilan qo'shni Termiz, Balx va hatto Hindiston bozorlarigacha mashhur bo'lgan.

Sherobod tumanidagi kon, 1942-yilda ishga tushirilgan, Kon tog'ning burmasida joylashgan bunda tuz qatlamlari teskari qatlamlangan bo'lib, oq tuzlar yuqori, qizil tuzlar pastda joylashgan. Qizil tuz qatlamlarida kaliy tuzlarining 6 qavati ajralib turadi. Tuzlarning o'lchangan zaxirasi 46 mln tonna yiliga 150 ming tonnadan karyerlardan qazib olinadi.

Aholining turmush tarzi, Tuz bilan bog'langan taqdirlar.

Tuzkon atrofidagi qishloqlar aholisi uchun bu kon — haqiqiy rizq-ro'z manbai. Bu yerda yashash oson emas, yozning jaziramasini va qishning izgi-irida sho'r havo bilan nafas olib yashash o'ziga xos matonat talab qiladi.

Axolisining asosiy mashg'uloti bu Chorvachilik hisoblanadi. Qizig'i shundaki, Tuzkon atrofida boqiladigan qo'y-qo'zilarining go'shti o'zgacha mazali bo'ladi. Cho'ponlarning aytishicha, sho'rtob yerning shuvoq va boshqa giyohlarini yegan chorva kam kasal bo'ladi va go'shti darmondoriga boy bo'ladi. Bu yerda nafaqat osh tuzi, balki chorva uchun zarur bo'lgan mineral toshlar ham qazib olinadi. Hatto dekorativ maqsadlarda ishlatiladigan, turli rangdagi (pushti, kulrang, tiniq) tuz kristallari uchraydi.

Tuzkoning mahalliy xalqlari qadimdan tish og'rig'i, tomoq shishishi yoki teri kasalliklarida aynan shu yerdagi "tosh tuz"laridan foydalanib kelgan.

Sherobod tuzi dunyodagi eng toza va inson organizmi uchun foydali tuzlar sirasiga kiradi. Tuzning tarkibida kalsiy, magniy, kaliy va eng muhimi — tabiiy yod miqdori yuqori. Bu tuzga hech qanday kimyoviy qo'shimcha qo'shilmaydi, u tabiatda qanday bo'lsa, shundayligicha dasturxonimizga yetib keladi. Xo'jaykon tuz g'ori bu yerning eng katta boyligi hisoblanadi.

Xo'jaykon tuz g'ori 1989-yilda ochilgan. Surxondaryo viloyatidagining Sherobod tumani Ko'xitang tog' tizmasi etaklarining janubi-sharqiy yonbag'rida, dengiz sathidan 1200 metr balandlikda joylashgan. Tuz g'orining ichki qismida san'at galereyalari tizimi bilan birgalikda bir-biridan harorat, namlik, bosim va mikroiklim bo'yicha farq qiluvchi beshta xona-kameralari mavjud. Speleoterapiya markazi (tuz g'ori)dir. G'or ichidagi havo o'ta toza va sterilidir. Astma, bronxit, nafas yo'llari allergiyasi va hatto asab kasalliklaridan aziyat chekuvchilar bu yerga kelib, bir necha kun g'or havosidan nafas olib, butkul sog'ayib ketishadi.

Bugungi kunda Sherobod Tuzkoni nafaqat viloyat, balki butun respublika iqtisodiyotiga hissa qo'shmoqda. Bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotlar zamonaviy qadoqlarda nafaqat O'zbekiston do'konlariga, balki qo'shni mamlakatlarga ham "Sherobod tuzi" brendi ostida chiqmoqda. Zavod va konlardagi ishchilarning aytishicha, yer ostidagi tuz zahirasi hali yuz yillargacha yetadi degan fikirlarni aytib o'tadi.

Tuzkon – Kelajakning yirik turizm va sog'lomlashtirish markazi sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda Sherobod Tuzkoni nafaqat sanoat zonasi, balki O'zbekistonning janubiy darvozasidagi eng jozibador turizm maskanlaridan biriga aylanib bormoqda. Davlatimiz tomonidan turizmni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor natijasida, bu yerda ekoturizm va tibbiyot turizmi uyg'unlashgan yangi loyihalar amalga oshirib kelinmoqda.

Xulosa: Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Sherobod tumanidagi Tuzkon koni shunchaki xomashyo manbai emas, balki Surxon vohasining asrlar osha saqlanib kelayotgan nodir xazinasi, ona tabiatning insonga in’om etgan bebaho ne’matidir. Ushbu maskan o‘zining million yillik tarixiy qatlamlari bilan o‘tmishdan sado bersa, bugungi kundagi sanoat va turizm salohiyati bilan ertangi kunning yuksak istiqbollarini namoyon etmoqda.

Tuzkonning bugungi qiyofasi tubdan o‘zgarmoqda. Bir paytlar faqat tuz qazib olinadigan og‘ir mehnat maydoni bo‘lgan bu hudud, endilikda zamonaviy texnologiyalar, tibbiyot turizmi va ekologik jozibadorlik markaziga aylanib borayotgani quvonarlidir. "Xo‘jaikon" tuz g‘orlarining shifobaxsh qudrati nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijlik sayyohlar uchun ham salomatlik maskani bo‘lib xizmat qilayotgani, hududning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Tuzkon — Sherobod xalqining g‘ururi va rizq-ro‘zi manbaidir. Bu yerdagi har bir tuz kristalli zamirida ota-bobolarimizning asriy tajribasi va bugungi kun ishchi-mutaxassislarining tinimsiz mehnati yotibdi. Kelajakda bu kon nafaqat iqtisodiy drayver, balki mintaqaning eng yirik sog‘lomashtirish va turizm klasterlaridan biriga aylanishi shubhasiz.

Zero, Sherobodning "oq oltini" bo‘lmish bu tuz, dasturxonimizga baraka, tanimizga sihat-salomatlik va iqtisodiyotimizga quvvat ulashishda davom etaveradi. Bizning vazifamiz esa tabiatning ushbu noyob mo‘jizasini asrab-avaylash, uning boy imkoniyatlaridan oqilona foydalanish va bu merosni kelajak avlodlarga butun mahobati bilan yetkazishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (Tashkent). "Sherobod tumani" va "Mineral resurslar" bo‘limlari.
2. Sh. Mirziyoyev. "Surxondaryo viloyatining sanoat va investitsiya salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi ma’ruzalari va hududiy dasturlar (2021-2024 yillar).
3. G.A. Mavlonov. "O‘zbekiston geologiyasi va mineral xomashyo bazasi" (Ilmiy darslik).
4. Mahalliy o‘lkashunoslik materiallari: Sherobod tumani tarixi va "Xo‘jaikon" sanatoriysi arxiv ma’lumotlari.
5. Statistika agentligi ma’lumotlari: Surxondaryo viloyatining eksport va sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari (2023-yil hisoboti).